

MUHAMMAD AMINXONNING XIVA XONLARI ICHIDA TUTGAN O'RNI VA UNING MADRASASI TARIXI

Atanazarova Ma'mura Raximovna

“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Xiva xonligi haqida gap borganda albatta davlatni boshqargan hukumdorlarni tarix sahnasida alohida tilga olmaslikning iloji yo'q. Ushbu maqolada Xiva xoni Muhammad Aminxon haqida va u tomonidan qurdirilgan madrasa va minora to'grisida qisqacha ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar: Avesto, Muhammad Aminxon, Nikolay I, Avesto, “Ichan-Qal'a”, Qilich Niyozmuhammedov, Shukrulloboy Miskinov, Darband, Muhammad Rizo Ogahiy.

MUHAMMAD AMINKHAN'S PLACE IN THE KHANS OF KHIVA AND THE HISTORY OF HIS MADRAS

ABSTRACT

When talking about the Khiva Khanate, it is impossible not to mention the rulers who ruled the country separately on the stage of history. This article provides brief information about Khan of Khiva Muhammad Amin Khan and the madrasa and minaret built by him.

Keywords: Avesto, Muhammad Aminxon, Nikolay I, Avesto, “Ichan-Qal'a”, Qilich Niyozmuhammedov, Shukrulloboy Miskinov, Darband, Muhammad Rizo Ogahiy.

Uch ming yillik davlatchilik an'alariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi, uning boshqaruv tizimi alohida o'rin tutadi. Prezident I.A.Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida “–Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilazatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar vatani, “Avesto” dek o'lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq Xorazm zamini butun dunyoga ma'lum va mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan”,1 deb

Xorazm tarixiga bo'lgan bugungi kundagi munosabatni yaqqol ko'rsatib bergan. Shu munosabat bilan Xorazm davlatchiligining muhim bo'lagi qo'ng'irotlar davri

davlat boshqaruvini tadqiq etish, ichki va tashqi siyosatni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xiva xonligida 1845-yilda Rahimqulixon vafotidan so'ng (1842-1845) uning ukasi Muhammad Aminxon (1817-1855) hokimiyatga keldi. Muhammad Aminxon (1845-1855) davrida markaziy hukumatning ko'chmanchi qabilalarni tinchlantirishga qaratilgan harakatlari bir muncha muvaffaqiyatga erishdi. U Marv uchun Buxoro amirligiga qarshi va Xurosonga 10 dan ortiq yurishlarni amalga oshirdi. 1846-yil dekabrda Orenburgga Xiva elchilari – Qilich Niyozmuhammedov va Shukrulloboy Miskinov yetib keldi. 1847-yil 9-martda ular Sankt-Peterburgga kelishdi. Elchilar Rossiya tomonidan Sirdaryoning Orol dengiziga quyilish joyi yaqinida qurilgan Raim istehkomini buzish masalasini ko'tardilar, Nikolay I bunga rad javobini berdi. 1847-1848-yillar Xiva otryadlari bilan chor harbiy qismlari o'rtasidagi kichik harbiy to'qnashuvlarda o'tdi. Muvaffaqiyatga erisha olmagan M. A. yana muammoni tinch yo'l bilan hal qilish yo'liga o'tdi. 1850 yilda Xiva elchisi Xoja Mahram Allaberdiyev Peterburgga tashrif buyurdi.

Biroq, hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha barcha muzokaralar hech qanday natija bermadi. Muhammad Aminxon davrida Rossiya, Usmonli imperiyasi, Eron va Afg'oniston bilan diplomatik aloqalar saqlanib turdi. Muhammad Aminxon davrida Xivada uning nomidagi eng katta madrasa qurilgan. 260 talaba madrasada tahsil olgan. Madrasa, talabalar va o'qituvchilarni saqlash xarajatlarini qoplash uchun xonlikning turli hududlarida juda ko'p yerlar ajratilgan. Mashhur Kaltaminor minorasi qurilishi ham boshlandi. Tarixchi Ogahiy Xorazm tarixini yozgan.

Xiva xoni Muhammad Aminxon kuchli qo'shin bilan Sariq turkmanlari ustiga yurish qildi. Jamshidiylar yordamida turkmanlarni og'ir mag'lubiyatga uchratdi. Ammo ularga qarshi olib borgan qattiq siyosat keyinchalik Quyi Murg'ob mintaqasidagi Teke turkmanlari va ularning janubidagi Saraxs hududida yashovchi Salur turkmanlariga yomon ta'sir qildi. O'tgan yillarda Xiva qo'shinlari Xiva frontida o'tgan yillardagi janglarga qaramay hujum qilib, mol-mulkini talaganini unutmagan teke turkmanlari Xiva xoniga qarshi isyon ko'tardilar. Bu qo'zg'olonga qarshi tayyorlangan Muhammad Aminxon teke turkmanlariga to'satdan hujum qilib, ularni og'ir mag'lubiyatga uchratdi. Biroq uning bu hujumlari turkmanlarni o'zaro birlashishga majbur qildi. Teke turkman boshchiligidagi birlashgan turkman qo'shinlari 1855-yil bahorida Muhammad Aminxon qo'shini bilan to'qnashishadi. Ular Mashhadning fors mirzosi (gubernatori) Faridun Mirzodan yordam so'rashadi, u 75 km uzoqlikdagi Darband qal'asidan yetti ming kishini, so'ngra Xurosondan yana uch ming kishini jo'natadi. Jang Xiva xonining mag'lubiyatiga aylanadi. Uning qo'shinlari tor-mor qilinadi. Ikki yuzta xorazmlik o'ldirilib, xon asirga olinadi, keyin boshi olinadi.

Uning o‘rniga o‘g‘li Abdullohxon o‘tirdi, biroq u ham olti oydan keyin isyonchi qabilalarga qarshi jangda halok bo‘ldi. Keyin Qutlug‘murodxon taxtga o‘tiradi, lekin u ham xuddi shunday taqdirni boshidan kechiradi. Nihoyat, Said Muhammadxon (1856-1864) taxtga o‘tiradi.

Muhammad Aminxon tomonida qurdirilgan madrasa va minora qadimiy Xiva obidalarining chiroyli namunalaridan biri hisoblanadi.

Madrasa Ichan qal‘aning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, shaharning bosh darvozasi Ota darvozadan kirib kelganda, o‘ng qo‘lda joylashgan.

2 qavatli madrasa pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, uning devorlarining qalinligi 1,5 metrga etadi. Madrasa, 130 hujradan iborat bo‘lib, tarixiy ma‘lumotlarga asosan unda bir vaqtning o‘zida 260 nafar talaba tahsil olgan.

Madrasa me‘moriy jihatdan boshqa shu kabi binolarga o‘xshash, bino simmetrik tarzda, ikki qavatli qilib qurilgan, tarhi to‘g‘ri burchakli, hovlili. Peshtoqning ikki yoniga an‘anaviy guldasta-minoralar ishlangan. Bosh tarzini besh gumbazli miyonsaroy, masjid, darsxona va qo‘shimcha xonalar egallagan. Hovlining ikki yonida kichik peshtoqlar bor. Birinchi qavatdagi hujralar yotoqxona va yordamchi xonalar sifatida xizmat qiladi, ikkinchi qavatdagi ravoqli peshayvon binoga fayz bag‘ishlagan. Ichkari hovlida to‘rtta kichik peshtoqlar ham mavjud bo‘lib, ularda imorat tarixidan ma‘lumotlar beruvchi epigrafik yozuvlar bitilgan koshinlar, bezaklar ham mavjud.

Bugungi kunda Muhammad Aminxon madrasasi sayyohlar uchun Mehmonxonaga aylantirilgan.

Ko‘k minor nomi bilan mashhur bo‘lgan minora esa Muhammad Aminxon tomonidan madrasa yonida qurilgan. Uning ko‘rinishi kesik konus shaklida bo‘lib, balandligi 28 metr, diametri 14,5 metr. Minora o‘z davrida “Ulli (ulug‘) minor”, “Ko‘k minor” nomlari bilan atalgan. O‘z davrining shoirlari uning qurilishi nihoyasiga etganini she‘riy tarixlarida ta‘riflashgan. “Madrasa peshgohida bir minorai oliy bino qildirdilarkim, sutun yanglig‘ gardun ayvoniga hamsar (falak ayvonining ustunidek), balki kayvon saqafiga barobar edi (osmon gumbaziga barobar edi)” – deb yozgan edi Ogahiy. Ushbu minora xivalik shoir, tarixchi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiyning ko‘z oldida qurilgan. Ogahiy uning bitkazilishi tantanasiga birnecha she‘riy ta‘rixlar bitgan. Ulardan biri minoraning tepasiga chiroyli koshin plitkalarga yozib o‘rnatilgan. Yozuvlar sho‘rolar davrida qo‘porib tashlangan edi. Mustaqillikdan keyin bu yozuvlar shoirning qo‘lyozma asaridan topilib, qayta tiklandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Gulomov X. G., Diplomaticheskiye otnosheniya gosudarstv Sredney Azii s Rossiyey v XVIII — pervoy polovine XIX veka. Tashkent, 2005
3. Gulyamov Y.G., Istoriya orosheniya Xorezma s drevneyshikh vremen do nashikh dney. Tashkent. 1957
4. Istoriya Uzbekistana. T.3. T.,1993.
5. Istoriya Uzbekistana v istochnikax. Sostavitel’ B. V. Lunin. Tashkent, 1990